



ZAMONAVIY FILOLOGIYA MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025 - YIL 1 - MAY

MATERIALLAR TO'PLAMI



MILLIY RESPUBLIKALAR KONSTITUTSIYALARIDA DAVLAT TILI MASALASI (XX ASRNING BIRINCHI YARMI)

Tog‘ayev To‘lqin Mamanazarovich

ToshDO‘TAU dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15412815>

Annotatsiya. maqolada sho‘rolar mamlakatida yuritilgan til siyosati Ittifoq va milliy respublikalar konstitutsiyalarida rus tili va milliy tillar maqomining belgilanishi va amal qilishi misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: til siyosati, rus tili, milliy tillar, davlat tili, konstitutsiya.

Annotation. The article examines the language policy carried out in the Soviet Union, using the example of defining and implementing the status of the Russian language and national languages in the constitutions of the union and national republics.

Key words: language policy, Russian language, national languages, state language, constitution.

Аннотация. В статье рассматривается языковая политика, проводившаяся в Советском Союзе, на примере определения и реализации статуса русского языка и национальных языков в конституциях союза и национальных республик.

Ключевые слова: языковая политика, русский язык, национальные языки, государственный язык, конституция.

Sovet hokimiyati yillarida til siyosati milliy siyosatning markaziy elementlaridan biri edi. SSSR xalqlarining birligi, jipsligini mustahkamlash choralari “jahon inqilobi” konsepsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ayniqsa, kuch oldi. Rasmiy doktrinaga ko‘ra, bunday yaqinlashishning asosini rus tili va madaniyati tashkil qildi.

Rus tili millatlararo muloqot tili sifatida bora-bora butun mamlakatda hukmron mavqiyega ega bo‘ldi.

1936-yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi ham til plyuralizmi konsepsiyasiga zid emas edi. Birinchidan, huquqiy diskursga Ittifoqning hududiy birligi: ittifoq respublikasi, avtonom respublika va avtonom viloyat tili tushunchasi kiritildi. Bunday til tegishli hududiy birlik ichida sud ishlarini yuritish doirasida qo‘llanilishi shart edi, ammo bu fuqarolarning o‘z ona tilidan foydalanish huquqiga, shuningdek, sud jarayoni ishtirokchilarining, agar bunga zarurat bo‘lsa, tarjimon xizmatiga murojaat qilish huquqiga to‘sqinlik qilmadi. Bundan tashqari, SSSR qonunlari ittifoq respublikalarining barcha tillariga tarjima qilinishi kerak edi. Ikkinchidan, Konstitutsiya SSSR fuqarolarining o‘z ona tilida maktab ta’limi olish huquqini ham e’lon qildi. Uchinchidan, davlat ramzlarida ittifoq respublikalari tillaridagi belgilar hali ham majburiy edi.

Mafkuraviy ustuvorliklarning o‘zgarishi burilish nuqtasi 1938-yil bo‘lib, o‘quvchilarning millatidan qat’i nazar, SSSR maktablarida rus tilini majburiy o‘rganish joriy etildi. Bundan tashqari, allaqachon lotinlashtirilgan alifbolar zudlik bilan kirill alifbosiga o‘tkazildi [Алпатов, 2000: 89-90].

Tillarning norasmiy ierarxiyasi paydo bo‘ldi. Bu ma’muriy-hududiy tuzilishning bevosita davomi edi. Eng yuqorida millatlararo muloqot va markaziy boshqaruv tili rolini o‘ynagan rus tili turardi. Undan so‘ng ittifoq respublikalari va avtonom respublikalarning titulli xalqlari tillari

joy egalladi, quyida barcha boshqa tillar qolishdi. Ta’riflangan ierarxiya aslida tillarning tengligi shioriga zid bo’lib, ba’zi tillarni boshqalardan ustun qo’ydi va ularning so’zlovchilariga ustunlik olishga imkon berdi.

SSSRda til siyosatining o’zgarib borishi Ittifoq tashkil topgandan keyin qabul qilingan konstitutsiyalarda, ayniqsa, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan asosiy qonunlarda milliy tillarning maqomi qanday belgilanganida yaqqol namoyon bo’ladi. Shu bilan birga bu holat ma’lum darajada milliy respublikalarning ittifoq oilasida tutgan mavqeyini ham ko’rsatadi. Konstitutsiyalarda titul millatlar tillarining davlat tili sifatida belgilanishi va qo’llanish o’rnida sezilarli farqlar mavjud. Lenincha til siyosatiga amal qilgan holda RSFSRning 1925-yil 11-mayda qabul qilingan konstitutsiyasida rus tili davlat tili sifatida belgilanmagan. Uning 13-bandida til(lar)ga tegishli holat shunday ifodalangan, xolos:

“Rossiya Sotsialistik Federativ Sovet Respublikasi fuqarolari o’z ona tilidan qurultoylarda, sudda, ma’muriyatda va jamoat hayotida erkin foydalanish huquqiga ega. Milliy ozchiliklarga maktabda o’z ona tilida o’qish huquqi kafolatlanadi”. [Конституция РСФСР, 1925: 9].

RSFSRning 1937-yilda qabul qilingan konstitutsiyada, uning keyingi tahrirdagi nusxalarida ham davlat tili to’g’risida gap yo’q. Ularda RSFSRda sud ishlari yuritish rus tilida yoki avtonom respublika yoki avtonom viloyat yoki milliy okrug tilida olib borilishi, bu tilni bilmaydigan shaxslar tarjimon orqali ish materiallari bilan to’liq tanishishlari ta’minlanishi, sudda o’z ona tilida so’zlash huquqiga ega bo’lishi (114-modda), shuningdek, maktablarda ona tilida ta’lim olish huquqi (125-modda) ta’minlangan. [Конституция РСФСР, 1937].

SSSR yoki RSFSR konstitutsiyalaridan farqli o’laroq ayrim ittifoq respublikalari asosiy qonunida milliy tillar davlat tili sifatida rasmiylashtirilgan. Masalan, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon o’z tillarini davlat tili deb e’lon qilgan.

Sirasini aytganda gruzin xalqi o’z til huquqini avval-boshdan himoya qilgan. Gruziyaning 1918-yil 23-martda, 1922-yil 2-martda, 1927-yil 3-aprelda, 1937-yil 13-fevralda qabul qilgan konstitutsiyalarida mos ravishda “Gruziyaning davlat tili gruzin tilidir” (2-modda), “Gruziya SSRning davlat tili gruzin tilidir” (6-modda), “Gruziya Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili gruzin tilidir” (10-modda), “Gruziya SSRning davlat tili gruzin tilidir” (156-modda) deb belgilab qo’yilgan. Shuningdek, mamlakatda milliy ozchiliklariga o’z milliy-madaniy va milliy muassasalarda o’z ona tillarini erkin rivojlantirish va ulardan foydalanish huquqi kafolatlangan. [Советские конституции. Ч. 1, 2015: 82; Конституция Грузинской ССР, 1937: 7-35].

Armaniston SSRning 1927-yilgi konstitutsiyasida ham “Armaniston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili arman tili” ekanligi qonunlashtirilgan (21-modda), Shuningdek, “Armaniston Sotsialistik Sovet Respublikasi fuqarolari o’z ona tilidan qurultoylarda, sudda, ma’muriyatda va jamoat hayotida erkin foydalanish huquqiga ega deb tan olingan. Milliy ozchiliklarga maktabda o’z ona tilida o’qish huquqi kafolatlangan (14-modda), qonun hujjatlari arman, rus va turkiy tilda e’lon qilinishi ko’rsatilgan (36-modda). [Советские конституции. Ч. 1, 2015: 208-209, 211].

Bu respublikaning 1937-yilda 23-martda qabul qilgan asosiy qonuni odatdagidek arman tilining yuksak maqomini tayin qilgan: “Armaniston SSRning davlat tili arman tilidir” (119-modda). [Советские конституции. Ч. 3, 2015: 265].

Shunisi qiziqki, Ozarbayjon SSRning 1927 yilda, hali milliy tillarga e’tibor qaratilgan davrda qabul qilingan konstitutsiyasida uning tili davlat tili deb belgilanmagan. Ammo alg’ovli 1937 yilda qabul qilingan asosiy qonunida bu xalqning tili davlat tili deb e’lon qilingan:

“Ozarbayjon Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili ozarbayjon tilidir” (151-modda). [Советские конституции. Ч. 3, 2015: 246].

Oʻrta Osiyo mamlakatlari konstitutsiyalari bu masalada, albatta, oʻziga xos “kamsuqum”ligi bilan ajralib turadi. Alohida respublika boʻlib ittifoqqa kirgan Turkmaniston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasida turkman va rus tillari davlat tili deb eʼtirof etilgan (18-modda) boʻlsa [Советские конституции. Ч. 2, 2015: 260], 1937-yilda qabul qilingan asosiy qonunda davlat tili haqidagi modda olib tashlangan. Faqat mintaqadagi boshqa respublikalar yoki muxtor respublikalar konstitutsiyasida boʻlgani kabi qonun hujjatlarining turkman, rus, oʻzbek va qozoq tillarida eʼlon qilinishi (39-modda), respublikada sud ishlarining turkman tilida, rus, oʻzbek, qozoqlarlar koʻpchilik yashaydigan aholi hududlarida mazkur millatlarning tilida olib borilishi, shuningdek, koʻpchilik tilini bilmaydigan shaxslarga ish materiallari bilan tarjimonlar orqali tanishishi va sudda oʻz ona tilida gapirishlari taʼminlanishi, fuqarolarning ona tilida taʼlim olish huquqi belgilangan. [Советские конституции. Ч.3, 2015: 300; 304-305]. Mana shu keltirilgan qonun moddalari aksariyat konstitutsiyalar uchun bir xil boʻlgan.

RSFSR tarkibida boʻlgan Qirgʻiz (Qozoq) ASSR konstitutsiyasida (1926) qozoq va rus tili, Qirgʻiz ASSR konstitutsiyasida (1929) esa qirgʻiz va rus tili davlat tili sifatida belgilangan, shuningdek, bu tillarda qonun hujjatlari qabul va eʼlon qilinishi qayd etilgan. Alohida Respublika maqomiga erishgan Qozogʻiston SSR va Qirgʻiziston SSRning 1937-yilda qabul qilingan konstitutsiyalarida davlat tili belgilangan moddalar olib tashlangan. Tillarning davlat ishlarida qoʻllanishi tartibi bu vaqtdagi Turkmaniston va Oʻzbekiston konstitutsiyalaridagi kabi ifoda etilgan. Faqat Qozogʻiston SSRda sud ishlari qozoq tili bilan birga rus, oʻzbek, uygʻur tillarida, Qirgʻiziston SSRda esa qirgʻiz tili bilan birga rus va oʻzbek tillarida olib borilishi belgilangan.

Mintaqa davlatlari ichida Tojikiston konstitutsiyasi tillarning amal qilish qoidalari belgilashda ajralib turadi. OʻzSSR tarkibi paytida 1929-yilda qabul qilingan Tojikiston ASSR konstitutsiyasi bu yerda yashovchi barcha milliy ozchiliklarining oʻz ona tilidan qurultoylarda, sudda, boshqaruvda va jamiyat hayotida erkin foydalanish huquqiga eʼtirof etilishi, maktabda oʻz ona tilida taʼlim olish huquqi taʼminlanishi, hukumatining dekret, qaror, va farmoyishlari tojik, oʻzbek va rus tillarida eʼlon qilinishi belgilangan. Bunday ifodalanish oʻsha vaqtdagi koʻpgina ittifoq konstitutsiyalariga xos. Ammo OʻzSSR tarkibidan chiqib, 1931-yilda Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylangan mamlakatning yangi bosh qonunida qoʻshni respublikalarnikidan farqliroq holatni koʻramiz. Chunonchi, “Tojikiston SSR hududida yashovchi millatlarning tillari (tojik, oʻzbek, turkman, qirgʻiz, rus va boshqalar) tengdir. Tojikiston SSRda tojik millatiga mansub aholi salmogʻi (nufusi) koʻp boʻlganligi sababli davlat, kasb-hunar va jamoat muassasa va tashkilotlari oʻrtasida ish yuritish uchun tojik tili ustivor til deb eʼlon qilinadi. Tojikiston SSR milliy ozchiliklarining huquqlarini toʻliq taʼminlash va ularni davlat qurilishiga kengroq jalb etish maqsadida u yoki bu millat mehnatkashlari koʻpchilikni tashkil etuvchi hududlarda ularda til va millatda ishlarni yoʻlga qoʻyish bilan kengashlar tashkil etiladi” (18-band). [Советские конституции. Ч. 2, 2015: 300].

Soʻnggi jumlada gʻalizlik yaqqol koʻrinib turibdi, lekin konstitutsiyaning ruscha matnidan bu aynan shunday tarjima qilinadi. Bu modda Belorusiya SSRning 1929-yil qabul qilingan konstitutsiyasining 20- va 21-moddalaridan olib shakllantirilgan. Belarus asosiy qonunining 20-moddasi ikkinchi xatboshisi aslida shu tarzda berilgan: “Belorussiya Sotsialistik Sovet Respublikasining mehnatkash milliy ozchiliklarini iqtisodiy va sotsialistik qurilish ishlariga yanada toʻliqroq va kengroq jalb qilish uchun u yoki bu millat ishchilari aholining koʻp qismini tashkil etuvchi hududlarda ushbu millatning tilida ish olib boradigan va milliy

xususiyatlarni o‘z ishida eng ko‘p hisobga oladigan kengashlar tashkil etiladi” [Советские конституции. Ч. 2, 2015:186].

Tojikiston SSRning 1935-yilda qabul qilgan konstitutsiyasida 1931-yil bosh qonun hujjatidagi bu modda chiqarib tashlangan. Tillarning qo‘llanishiga doir ikkita modda kiritilgan:

“20-modda. Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida yashovchi barcha millatlarning tillari teng huquqli bo‘lib, har bir fuqaroga, millatidan qat’i nazar, davlat organlari bilan aloqalarida va davlat organlarining u bilan munosabatlarida, barcha ommaviy chiqishlarda, shuningdek, butun jamoat hayotida ona tilidan foydalanish to‘liq imkoniyati ta‘minlanadi” [Советские конституции. Ч.2, 2015: 311]. Bu modda Ukraina SSSning 1929-yilda qabul qilingan konstitutsiyasidan (20-band) olinib, moslashtirilgan. 21-moddada qonun hujjatlarining tojik, o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilinishi belgilangan.

Ittifoqdosh respublikalar konstitutsiya tuzganlarida, bir-biridan andoza olgan, bu masalada odatda o‘zlaridan yuqoriroq turgan og‘alarning izidan borishgan.

Endi O‘zbekiston Asosiy qonunlarida davlat tili masalalari, o‘zbek tilining maqomi qanday hal qilinganiga e‘tibor qaratsak.

O‘zbekistonning sobiq sovetlar davridagi ilk Konstitutsiyasi 1927-yil 30 (31)martda qabul qilingan. Sovetlarning 2-Umumo‘zbekiston syezdida qabul qilingan mazkur Konstitutsiya 1927-yil 11-iyulda nashr etilgan. Poytaxti Samarqand shahrida bo‘lgan va tarkibiga Tojikiston ASSR ham kirgan O‘zbekiston SSR – “ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati” deb e‘lon qilindi, bunda “butun hokimiyat – ishchilar, dehqonlar va Qizil Armiya deputatlari sovetlariga tegishli” ekani belgilandi.

Arab yozuvida chop etilgan o‘zbekcha nusxasida bu davr o‘zbek adabiy tili me‘yorlarida eski o‘zbek tili uslubining ta’siri saqlangan. Bu uning nomidayoq ko‘rinib turibdi: “O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘rolar Jumhuriyatining Qonun asosiysi (konstitutsiyasi)”. (Biz Konstitutsiyaning rus tilida nashr etilgan nusxalaridan foydalandik - T.T.).

104-band (modda)dan iborat bu birinchi qonstitutsiyada tillar bilan bog‘liq holat, agar gerb va bayroqdagi yozuvlar qaysi tilda ekani ko‘rsatilganini aytmasa, faqat birgina o‘rinda qayd etilgan. Hujjatning 17-bandida o‘qiymiz: “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barcha milliy ozchiliklari uchun qurultoylarda, sudda, boshqaruvda va jamiyat hayotida o‘z ona tilidan erkin foydalanish huquqi tan olinadi va maktabda ona tilida o‘qish huquqi ta‘minlanadi. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Hukumatining dekret, qaror va farmoyishlari o‘zbek, rus va tojik tillarida nashr etiladi [Советские конституции. Ч.2, 2015: 268].

O‘zbekiston SSRning 1931-yildagi konstitutsiyasi respublika tarkibidan Tojikiston ASSR ajralib chiqishi va okruglar tugatilishi munosabati bilan yangi tahrirda qabul qilingan. Shunga ko‘ra asosiy qonunda tillarning qo‘llanishiga doir ayrim o‘zgarishlarni ko‘ramiz. Xususan:

“16. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barcha fuqarolari o‘z ona tilidan qurultoylarda, sudda, boshqaruvda va jamiyat hayotida erkin foydalanish huquqiga ega deb e’tirof etiladi. Milliy ozchiliklarga maktabda o‘z ona tilida o‘qish imkoniyati ta‘minlanadi”.

17. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Hukumatining dekret, qaror va farmoyishlari o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilinadi. [Советские конституции. Ч.2, 2015: 279].

Bu moddalar ilk konstitutsiyadagi ifodasidan “milliy ozchilik” birikmasining “fuqaro” so‘ziga almashtirilgani, bir moddaning ikki moddaga keltirilgani va O‘zbekiston tarkibidan Tojikiston ASSR chiqqanligi sababli “o‘zbek, rus va tojik” so‘zlarining dastlabki ikkisi saqlangani bilan farq qiladi.

O‘zSSRning 1937-yil 14-fevralda qabul qilgan konstitutsiyasida tillarning qo‘llanishi bilan bog‘liq oldingilaridan farq qiladigan moddalar kiritilgan. Ularda Qoraqalpoq Muxtor respublikasi O‘zbekiston tarkibiga o‘tishi bilan bog‘liq holatlar ham aks etgan:

“41-modda. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining Qonunlari, shuningdek, farmon va tushuntirishlari, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qaror va farmoyishlari o‘zbek va rus tillarida, Qoraqalpoq Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasida qoraqalpoq tilida e‘lon qilinadi.

109-modda. O‘zbekiston SSRda sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, Qoraqalpoq ASSRda qoraqalpoq tilida, rus, qozoq, tojik yoki qoraqalpoq aholisi ko‘p bo‘lgan qishloq va shaharlarda esa mos ravishda rus, qozoq, tojik yoki qoraqalpoq tillarida olib boriladi, hududning ko‘pchilik aholisi tilini bilmaydigan shaxslarga ish materiallari bilan tarjimon orqali to‘liq tanishish, shuningdek, sudda o‘z ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”.

Xuddi shu vaqtda qabul qilingan Qoraqalpoq ASSR konstitutsiyasida tillarning huquqiy jihatlari bu mamlakatga mos ravishda belgilangan:

“77-modda. Qoraqalpoq ASSRda sud ishlarini yuritish qoraqalpoq tilida olib boriladi, qozoq yoki o‘zbek yoki rus aholisi ko‘p bo‘lgan qishloq va shaharlarda esa qozoq, o‘zbek va rus tillarida olib boriladi, bu tillarni bilmaydigan shaxslar uchun tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘liq tanishish, shuningdek, sud majlisida ularning o‘z ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”. [Советские конституции. Ч.3, 2015:311, 316, 325].

Shuni ham ta’kidlash kerakki, RSFSR tarkibida bo‘lgan Qoraqalpog‘iston ASSRning 1934-yil 25-dekabrda qabul qilgan konstitutsiyasida Qoraqalpoq ASSR hududida qoraqalpoq tili umumiste‘mol tili hisoblanishi qayd etilgan. [Советские конституции. Ч.2, 2015: 48]. Boshqa birona konstitutsiyada biror tilning “umumiste‘mol tili” (общеупотребительный язык) ekanligi uchramaydi.

1978-yilda qabul qilingan respublika konstitutsiyasida ham o‘zbek tilining qo‘llanish holati mohiyatan o‘zgarmadi, faqat O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1991-yilda qabul qilingan konstitutsiyada o‘zbek tilining maqomini “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” (4-modda) deb belgilashga muvaffaq bo‘ldi.

Ko‘rinadiki, boshqa ayrim ittifoqdosh respublikalardan (Masalan, Gruziya, Armaniston, Ozarbayondan) farqli o‘laroq, 1927, 1931, 1937-yillarda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalarining birontasida bu sho‘ro mamlakatida (respublikasida) “o‘zbek tili davlat tilidir” deb belgilangan holat mavjud emas.

Tillarning teng huquqliligi masalasi Ittifoqdagi bir qator respublika va muxtor respublikalar qonstitutsiyalarida belgilangan. Xususan: “20. Ukraina Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida yashovchi barcha millatlarning tillari teng huquqlidir” (Ukraina SSRning 1929-yilgi konstitutsiyasi); “21-modda. Belorussiya Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat va jamoat muassasalari va tashkilotlarida belarus, yahudiy, rus va polyak tillarining to‘liq tengligi o‘rnatiladi” (Belarusiya SSRning 1927-yilgi konstitutsiyasi); “6. Dog‘iston Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlarning tillari teng huquqlidir” (Dog‘iston ASSRning 1927-yilgi konstitutsiyasi); “7. Kareliya Sovet Sotsialistik Avtonom Respublikasi hududida teng huquqli davlat tillari – karel, fin va rus tillaridir (Kareliya ASSRning 1926-yilgi konstitutsiyasi); “10. Moldoviya Sovet Sotsialistik Avtonom Respublikasi hududida yashovchi barcha millatlarning tillari teng huquqlidir” (Moldoviya ASSRning 1925-yilgi konstitutsiyasi 181-b); “18. Tojikiston SSR hududida yashovchi millatlarning tillari (tojik, o‘zbek, turkman, qirg‘iz, rus va boshqalar) teng huquqlidir” (Tojikiston SSSRning 1931-yilgi konstitutsiyasi 131-bet). [Советские конституции. Ч.2, 2015: 39, 60, 131,145, 174, 181,187].

Aksariyat milliy respublikalar tillarining maqomi, nufuzi 30-yillarda qabul qilingan konstitutsiyalarda pasayganini yoki umuman belgilanmaganini ko‘ramiz. SSSR tashkil topgungacha va 1936-yildan keyin konstitutsiyalarda tillarning tengligi qayd etilmagan.

Shu tariqa, 1936-yilgi konstitutsiyalarda til siyosati masalalari bo‘yicha faqat prinsipial farq bo‘lib, til maqomini belgilash huquqi ma’lum ma’noda Sovet Ittifoqi tarkibiga kiruvchi siyosiy-hududiy tuzilmalar ixtiyoriga qoldirildi. Biroq bu rasmiy-huquqiy jihat har doim ham haqiqiy siyosiy amaliyotga mos kelavermas edi. V.I. Lenin tomonidan e’lon qilingan Ittifoq hududiy birliklaridagi rus tili va milliy tillar muvozanati 1930-yillardan boshlab asta-sekin birinchisining foydasiga buzildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алпатов В.М. 150 языков и политика. 1917–2000. Социоллингвистические проблемы СССР и постсоветского пространства. М.: Институт востоковедения РАН, 2000. 190 с. -89–90.
2. Конституция (Основной Закон) Грузинской Советских Социалистической Республики. -Тб., 1937.
3. Конституция (Основной закон) Российской Советской Федеративной Социалистической Республики. –М.: ВЦИК, 1925.
4. Конституция (Основной закон) Российской Советской Федеративной Социалистической Республики. -М. Юридическое издательство НКЮ Союза ССР, 1937.
5. Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 1. Первые советские республики, 1918-1922 гг. /Сост. Д.В.Кузнецов. -Благовещенск: БГПУ, 2015. -156 с.
6. Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг. / Сост. Д.В. Кузнецов. – Благовещенск: БГПУ, 2015. – 334 с.
7. Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 3. СССР, 1936-1977 гг. / Сост. Д.В. Кузнецов. [– Благовещенск: БГПУ, 2015. – 418 с.